

EKOLOGIYA VA CHIQINDISIZ TEXNOLOGIYALARNING UYG‘UNLIGI

Ergashev Baxtiyor Abloqulovich

Jizzax politexnika instituti

Annotatsiya: Maqolada mamlakatimizda ekologiya sohasida olib borilayotgan tadqiqotlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Ekologiyaning inson hayotiga ta’siri, chiqindisiz texnologiya, genetik va nasliy omillar, ikkilamchi xomashyolar ta’siri, atrof-muhit muhofazasi.

Mamlakatimizda barcha sohalarda bo‘lgani kabi ekologiya sohasiga ham katta e’tibor berilmoqda. Atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan tejamkorona va oqilona foydalanish, chiqindisiz va kam chiqindili texnologiyalarni ishlab chiqarish korxonalarida keng joriy etish kabi masalalar eng muhim va o‘z yechimini kutayotgan umumdavlat vazifalariga kiradi. Respublikamiz va xususan, viloyatimiz miqyosida jiddiy va keskin ekologik vaziyatlarni vujudga kelishining asosiy sababi ishlab chiqarish o‘sish sur‘atlarining tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirish sur‘atlardan bir necha marotaba yuqoriligidadir. Ushbu maqsadlar uchun ajratilayotgan mablag‘lar (u milliy daromadning 1,5-2% ni tashkil etadi) kerakli miqdoriga nisbatan bir necha o‘nlab marotaba kamdir. Rivojlangan mamlakatlarda esa, bu ko‘rsatgich korxonalar mablag‘ining 25-30% ni tashkil etmoqda.

O‘n yillar davomida vujudga kelgan ekologik muammolarga siyosat aralashib, ularga panja orasidan qarab kelindi. Ularni nazar -pisand qilmaslik shu darajaga yetdiki, kelib chiqish sabablari hamma tomonlama o‘rganilmay qoldi. Natijada atmosfera havosi, tuproq va suv manbalari zaharlandi, atrof - muhitga misli ko‘rilmagan darajada zarar etkazildi. Ma’lumotlarga qaraganda, inson sog‘ligining 67 - 74% tashqi muhit, ovqatlanish va yashash sharoitiga, 16 - 18% genetik va nasliy omillarga va faqatgina 10 - 15% sog‘liqni saqlash xizmatiga bog‘liq. Demak, hayot kechirish uchun atrof - muhitni zaharlamaslik chora tadbirlarini ko‘rish har bir ishchi,

xizmatchi, mutaxassis, muhandis va rahbarning asosiy burchi bo‘lishi kerak. Sayyoramiz sog‘lomligi bizning sog‘ligimiz demakdir!

Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev tashabbuslari bilan 2017-yil 21-apreldagi PQ-5024-sonli "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi davlat boshqaruv tizimini takomillashtirish to'g'risida", 2017-yil 21-apreldagi PF-2915-sonli "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2021 yil 21-apreldagi "2017-2021 yillarda maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish tizimini tubdan takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2916-sonli qarori va boshqa ko'pgina qabul qilinayotgan qaror va farmonlari ushbu sohani yanada rivojlantirishga undamoqda [1].

Chiqindisiz texnologiya-insoniyat ehtiyojini chiqarishning shunday samarali usuliki, unda “xom-ashyo - ishlab chiqarish - iste`mol qilish - ikkilamchi xom-ashyo resurslari” siklida xom-ashyolardan va energiyadan unumli va kompleks ravishda qo`llaniladi va tabiiy atrof-muhitga yetkazilgan har qanday ta`sir uning normal holatidan chiqara olmaydi.

Hozirgi kunda yer aholisi o‘tgan asrning boshidan to yangi asrning shu kunigacha bir necha barobar o‘sdi. Agar ahvol shu darajada davom etaversa, yaqin kelajakda insoniyatning yer yuzida yashashi xavf ostida qoladi. Chunki ishlab chiqarish ko‘lami kengayib borishiga, bu esa mahsulotlar turi ko‘payishiga va ko‘plab ishlatilishiga olib kelmoqda, natijada atrof-muhitda chiqindilarning oshib borishiga sababchi bo‘lmoqda. Bizning maqsad hozirgi kunda insonning hayotiy ehtiyojlari kundan-kunga keskin oshib borayotganligini ko‘rsatish va uning ehtiyojlarini qondirish uchun esa ishlab chiqarish va texnikani kundan-kunga rivojlanib, ko‘proq mahsulotlar ishlab chiqarayotganligini bildirishdir. Tabiatni o‘zi bir butun muvozanatdagi turli energetik aloqalar bilan bog‘langan sistema bo‘lib, bu aloqalarning buzilishi va izdan chiqishi, yerdagi mavjud tabiiy jarayonlarning buzilishiga olib keladi va buning oqibatida yer yuzida turli ekologik falokatlar yuzaga keladi [2].

Hozirgi kunda ekologik falokatlarning oldini olish uchun ko'plab davlatlar o'rtasida o'zaro kelishuvlarni amalga oshirish, davlatlar tomonidan atrof-muhit holatini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilash va uni bajarish, aholi o'rtasida ekologik tarbiyani kuchaytirish, sanoat tarmoqlarida hosil bo'luvchi barcha turdagi tashlamalarning, chiqindilarning miqdorini kamaytirish va ularni zararsizlantirishga qaratilgan yangi texnologiyalarni joriy qilish, eski ishlab turgan qurilmalarni yangisiga almashtirish, tozalash inshootlarini o'rnatish kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish davlatlar tomonidan atrof-muhit holatini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilash va uni bajarish, aholi o'rtasida ekologik tarbiyani kuchaytirish, sanoat tarmoqlarida hosil bo'luvchi barcha turdagi tashlamalarning, chiqindilarning miqdorini kamaytirish va ularni zararsizlantirishga qaratilgan yangi texnologiyalarni joriy qilish, eski ishlab turgan qurilmalarni yangisiga almashtirish, tozalash inshootlarini o'rnatish kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim. Hozir, XXI-asr bo'sag'asida, fan-texnika taraqqiyoti jadal su'ratlar bilan rivojlanib bormoqda.

Inson tomonidan biosferaga ko'rsatilayotgan ta'sirni tartibga solish, ijtimoiy taraqqiyot bilan tabiiy muhitni saqlab qolishning o'zaro munosabatlarida muvozanatga erishish muammolari borgan sari dolzarb bo'lmoqda. Havo bo'shlig'ining ifloslanishi ham Respublikada ekologik xavfsizlikka solinayotgan tahdiddir. Ekologik xavfsizlik muammosi allaqachon milliy va mintaqaviy doiradan chiqib, butun insoniyatning muammosiga aylangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoyev. “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etishni ta'minlash chora tadbirlari to'g'risida”gi PF-2915-2017 yil apreldagi farmoni.
2. M.N. Musayev. Sanoat chiqindilarini tozalash texnologiyasi asoslari. Toshkent-2011 yil. -232 b.